



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI
RIVOJLANTIRISH QO'MITASI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI NUKUS
FILIALI**

**"VETERINARIYA MEDITSINASI VA CHORVACHILIKDAGI DOLZARB
MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI" mavzusidagi xalqaro
ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari**

TO'PLAMI

13-noyabr 2025-yil

СБОРНИК материалов

**международной научно и научно-технической конференции на тему
"АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ И
ЖИВОТНОВОДСТВА И ИХ РЕШЕНИЯ"**

13 ноября, 2025 г

**International scientific and scientific-technical conference
"ACTUAL PROBLEMS OF VETERINARY MEDICINE AND LIVESTOCK
AND THEIR SOLUTIONS"**

November 13, 2025

NUKUS-2025

“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”
Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari [Matn]: to‘plam / Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali. – Nukus: “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025. – 389 b.

Anjuman tashkiliy qo‘mitasi

Tashkiliy qo‘mita raisi: Esimbetov Adilbay Tlepovich, b.f.d., professor;

Tashkiliy qo‘mita raisi muovini: Avezimbetov Shavkat Dosumbetovich, v.f.n.;

Tashkiliy qo‘mita kotibi: Rozumbetov Kenjabek Umar og‘li, b.f.f.d.;

D. Bazarbayeva – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida katta o‘qituvchisi, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Tashkiliy qo‘mita a‘zolari:

Sh. Jabbarov – O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari, veterinariya fanlari doktori, professor.

X. Yunusov – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti rektori, biologiya fanlari doktori, professor.

M. Y. Karpuxin – Ural davlat agrar universitetining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, agrar fanlar doktori, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

N. G. Malkov – N. F. Vereshagin nomidagi Vologda davlat sutchilik akademiyasi rektori, texnika fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

A. Abdurasulov – Qirg‘iziston Respublikasi O‘sh davlat universiteti “Veterinariya meditsinasi va biotexnologiyasi” kafedrasida mudiri, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, professor. (Qirg‘iziston Respublikasi)

R. Miqtibayeva – Qozog‘iston milliy agrar tadqiqot universiteti “Mikrobiologiya va virusologiya” kafedrasida professori, veterinariya fanlari nomzodi. (Qozog‘iston Respublikasi)

S. Mirzakulov – Olmaota texnologiya universiteti “Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi” kafedrasida professori, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, dotsent. (Qozog‘iston Respublikasi)

Q. Atanazarov – O‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari, biologiya fanlari nomzodi, dotsent.

A. Mambetnazarov – Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, dotsent.

A. Kaniyazov – “Veterinariya va zootexnologiya” fakulteti dekani, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

X. Mamatov – “Zootexnologiya” kafedrasida mudiri, qishloq xo‘jalik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

R. Turg‘anbayev – “Zootexnologiya” kafedrasida professori, agrar fanlar doktori

A. Kamalova – “Veterinariya meditsinasi va farmakologiyasi” kafedrasida mudiri, veterinariya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

P. Xojalepesov – “Iqtisodiyot va gumanitar fanlar” kafedrasida mudiri, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

R. Rzaev – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida mudiri, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 27-dekabrda 490-son buyrug‘i bilan oliy ta‘lim tashkilotlari hamda ilmiy tashkilotlarda 2025-yilda o‘tkaziladigan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, simpoziumlar, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxati 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan – 2025-yilda xalqaro miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi asosida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filialida 2025-yil 13-noyabr kuni – **“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”** mavzusida o‘tkazilgan Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari asosida tuzilgan.

Konferensiyada, veterinariya sohasida faoliyat olib borayotgan universitet va filialarning professor-o‘qituvchilari, ilmiy markazlarning va insitutlarning ilmiy xodimlari, doktorantlar, magistrantlar, iqtidorli yosh tadqiqotchilarning ilmiy-tadqiqot ishlariga bag‘ishlangan maqolalar o‘rin olgan

To‘plamga kiritilgan maqolalar materiallarining to‘g‘riligi va haqqoniyligiga mualliflar mas‘ul hisoblanadi.

© Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali, 2025

© “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025

QUYONLAR PASTERELLYOZI EPIZOOTOLOGIYASI VA DIAGNOSTIKASI

(Adabiyot ma'lumotlari analizi)

Pulotov F.S., Madetova N.M.

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Nukus filiali*

Kirish. Quyon go'shti kimyoviy tarkibi va ozuqaviy qiymati bo'yicha zarur parxezbop oziq-ovqat mahsulotlaridan biri hisoblanadi. Yurtimizda quyonchilikni rivojlantirishga bo'lgan e'tibor davlat darajasiga ko'tarilgan bo'lib, bu e'tibor bir qancha qonun hujjatlari bilan mustahkamlab qo'yilgan. Jumladan "O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022-2026-yillarga mo'ljallangan dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-120-sonli qarorida quyonchilik tarmog'ini rivojlantirishga bag'ishlangan alohida ustuvor yo'nalish belgilab qo'yildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 18-yanvar 2022-yil 29-son "Respublikada quyonchilik sohasini yanada rivojlantirish va qo'llab quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga binoan tizimli tadbirlar yo'lga qo'yilgan.

Jumladan, quyonchilik fermer xo'jaliklarini rivojlantirish, aholini sifatli, ekologik toza mahsulot (go'sht, jun, mo'yna) bilan ta'minlash dolzarb masala hisoblanadi.

Mavzuning dolzarbligi. Quyonchilikni rivojlantirishda turli yuqumli va yuqumsiz kasalliklar to'sqinlik qiluvchi asosiy omillardan sanaladi. Jumladan, pasterellyoz kasalligi quyonchilik xo'jaliklarida ko'p uchraydigan kasallik bo'lib, parenximatoz a'zolarida gemorragik yallig'lanish va septisemiya simptomlari, sodir bo'ladi va quyonlarning ommaviy nobud bo'lishi bilan tavsiflanadi.

Pasterellyoz qo'zg'atuvchisi organizmga kirgach, juda tez ko'payadi. Ko'pincha quyonlarning butun populyatsiyasiga ta'sir qiladi. Kasallikdan quyonlarning 50-60 % qismi zararlanib, 80-85 % qismi nobud bo'lishi kuzatilgan. Bu quyonchilik tarmog'iga katta salbiy ta'sir o'tkazadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi: Pasterellyozning dunyo miqyosida turli hayvonlarda va quyonlarda tarqalishi, klinik belgilari, patomorfologik o'zgarishlari, bakteriologik va patogistologik tashxislash, davolash va qarshi kurash, enzootik va epizootik holatda uchrashi, tarqalish darajasi hamda tezligi, qamrab olish ko'lamini faqat kasallik etiologiyasiga bog'liq bo'lib qolmasdan, unga yordamlashuvchi sharoitlarga ham bog'liqligi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xorijiy olimlardan L.K. Abdel-Somie, D.H. Abdelhady, M.A. El-Abasy, Z.S.Al-Lebbanl, S. Kruckenbergl, MDH olimlaridan P.K. Bergxof, B.B. Maksimovich, A.A.Vashutin, E.S. Voronin, A.A.Sidorchuk, V.S.Sisaev kabi olimlar tomonidan olib borilgan va ilmiy jihatdan asoslangan nazariy hamda amaliy chora - tadbirlar ishlab chiqilgan. Pasterellyoz bakterial kasallik bo'lib, barcha qishloq xo'jaligi hayvonlari, parrandalar, mo'ynali hayvonlar, odamlarda ham uchraydi. Pasterellyozning qo'zg'atuvchisini dastlab, Rossiyalik olim E.M. Zemmer 1878-yilda birinchi marta yirik shoxli hayvondan ajratgan va o'rgangan, 1880-yilda fransiyalik olim Lui Paster pasterellyoz qo'zg'atuvchisini parrandalardan ajratgan.1897-1900-yillarda Linner barcha guruhni umumiy Pasteurella deb atashni taklif qilgan, 1910-yilga kelib Lui Paster sharafiga kasallik qo'zg'atuvchisi Pasteurella kasalligi "pasterellyoz" deb nomlangan.

Quyonlarning pasterellyozi 1881-yilda Germaniyaning mikrobiolog va epidemiolog olimi Georg Gafki tomonidan ta'riflangan va dastlab qo'zg'atuvchi Pasteurella cuniculi deb atalgan.1880-yillarda birinchi bo'lib Lui Paster sharafiga Pasteurella multocida qo'yilgan. Quyonlar pasterellyozi o'ta yuqumli kasallik bo'lib, uning qo'zg'atuvchisi Pasteurella multocida.

Pasterellyoz kasalligi qo'zg'atuvchisi Pasteurella multocida turiga mansub bakteriya bo'lib, dunyoda quyonlar orasida keng tarqalgan kasallik qo'zg'atuvchi hisoblanadi. Ushbu qo'zg'atuvchi bilan kasallangan hayvonda 1-2 kunda o'lim kuzatilgan. Pasterellyoz qo'zg'atuvchisi hayvonning oziqlanishi, saqlash sharoiti, hayvonning rezistentligiga bog'liq holda rivojlanadi

hamda tarqaladi. Bu kasallik bilan quyonlar zoti va yoshidan qat'iy nazar yil davomida kasallanishi mumkin.

Pasteurella multocida, yuqori virulentli va oson yuqadigan kokkobakteriyalar bo'lib, quyonlarning eng muhim bakterial kasalliklaridan biri. Kasallik butun dunyo bo'ylab ishlab chiqarish korxonalarida katta iqtisodiy yo'qotishlarga olib keladi.

Pasteurella multocida – katta bo'lmagan, gram manfiy, harakatsiz spora hosil qilmaydigan, ko'pincha alohida, juft va alohida holda zanjir bo'lib joylashadigan bakteriya. Barcha anilin bo'yoqlari bilan bo'yaladi. Kasal hayvonlar to'qimalarida pasterellalar kichik shaklda bo'ladi. Ular bipolyar metil sinka yoki Gimza Ramanovskiy bo'yog'i bilan bo'yaladi. Yangi kulturada kapsula hosil qiladi. Pasterellalar fakultativ aerob, odatiy suyuq, qattiq ozuqa muhitlarida 37°C da o'sadi. Bakteriyalar o'ssa bulyon loyqalanadi. GPA da 3 shaklda: Silliqlik S, g'adir-budur R, mukoid M koloniyalar kuzatiladi. Fermentativ xususiyati kuchsiz. Hozirgi kunda quyonlar pasterellyozi *Pasteurella multocida* qo'zg'atuvchisining 6 ta tipi aniqlangan. A, B, D, C, E va F serotipi va bu tiplarning 16 serovariantlari mavjudligi haqida ma'lumotlar mavjud. Ularning patogenligi hayvonlarning turiga bog'liq.

Quyonlar pasterellyozining tashxisi va klinik belgilari: Quyonlarda pasterellyoz ko'proq issiq-sovuq keskin o'zgarganda (kuz va bahor fasllarida), quyonlar zich saqlanganda, vitamin va mineral moddalar yetishmasa tez tarqaladi. Quyonlarda kasallik o'tkir kechsa tana harorati ko'tariladi, lohaslik, anoreksiya, tumov, aksirish, ayrim holda diareya kuzatiladi va ular holsizlanib, 1-2 kunda o'ladi. Turg'un sog'lom xo'jaliklarda esa pasterellyoz surunkali kechib, rinit va konyunktivit (1-rasm) belgilari paydo bo'ladi. Kamdan kam ich ketishi, fibrinoz yiringli pnevmoniya va teri ostida absesslar kuzatiladi.



1.rasm. Pasterellyoz bilan kasallangan quyonda rinit va konyunktivit belgisi

Pasterellyoz quyonlarda enzootiya ba'zan epizootiya bo'lib tarqalishi mumkin. Infeksiya bilan zararlangan xo'jaliklarda quyonlarning 80 % qismi kasallikdan nobud bo'lishi va tuzalganlari qo'zg'atuvchi tashuvchi bo'lishi aniqlangan. Pasterellyozga oxirgi tashxis laboratoriya tekshiruvlariga asosan qo'yiladi.

Ushbu kasallikka diagnoz epizootologik ma'lumotlar patomorfologik o'zgarishlar va albatta bakteriologik tekshirishlar natijalari asosida va zamonaviy tekshiruv usuli PZR va IFT orqali amalga oshirilishi ta'kidlangan. Pasterellyoz qo'zg'atuvchisi organizmga tushgach, kasallik quyonlarda tipik va atipik shakllarda namoyon bo'ladi. Birinchi holatda qo'zg'atuvchi limfa va

qonga soʻrilib, butun organizmning aʼzo, toʻqimalariga tarqaladi [8,9]. Kasallangan quyonlar ishtahasi yoʻqoladi, nafas olishi tezlashadi, holsizlanadi, quyon bolalari emishdan bosh tortadi. Quyonlar tana harorati dastlab koʻtariladi 41-42°C va oʻlimdan oldin harorat 33-35°C gacha keskin pasayadi. Oʻtkir kechganida quyonlar 1-2 kunda nobud boʻladi.

Xulosa. Quyonlar pasterellyozi quyonchilikda katta iqtisodiy zarar keltiradi. Shu bois asosiy chora – profilaktika, yaʼni vaktsinatsiya va sanitariya qoidalariga qatʼiy amal qilishdir. Pasterellyoz boʻyicha nosogʻlom boʻlgan quyonchilik xoʻjaliklarida qatʼiy cheklov tadbirlari oʻtkaziladi. Binolar va kataklar dezinfeksiya qilinadi. Yakunlovchi dezinfeksiya oʻtkazilib uning sifati bakteriologik tekshirilgach hamda oxirgi kasal aniqlangan kundan 14 kun oʻtgach, cheklov bekor qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ятусевич А.И. Прудников В.С, Карасев Н.Ф, Николаенко М.Ф. «Заразные болезни пушных зверей»/ Монография Витебск -2008. С-10-12.
2. El Tayeb A.B., Morishita T.Y and Angrick E.J “Evaluation of *Pasteurella multocida* isolated from rabbits by capsular typing, somatic serotyping, and restriction endonuclease analysis” J. Vet. Diagn. Invest., 16 (2): 2004. –P. 121–125.
3. Анников В.В, Красников А.В, Кортова Д.М, “Болезни Пушных Зверей” /Лекция Саратов 2017.–67-68 с
4. Основные болезни кроликов [Электронный ресурс]//ОГБУ Иркутская районная СББЖ. – Режим доступа: <http://irkraibbg.ru>/Основне Болезни Кроликов-Дата доступа : 24.07.2020.
5. Рютова В.П “ Болезни кроликов ” /Москва Россельхозиздат–1985. –С. 84-88.
6. Brogden K. A. “Physiological and Serological Characteristics of 48 *Pasteurella multocida* Cultures from Rabbits”// Journal of clinical Microbiology, vol 11 No 6 June 1980. –P. 646–649.
7. Балашов И.Е. Кролики мясных пород для себя и для заработка / Москва 2000.–192-196 с.
8. Navroʻzov, N.I., Poʻlatov, F.S., Sheralieva, I.D., Nabieva, N.A., Sultonova, I.Y., & Aktamov, U.B. (2022). Qoʻzi kolibakteriozida xitozan suktinatning ahamiyati.
9. Salimov X.S., Qambarov A.A. Epizootologiya darslik Samarqand-2016. 194-200.
10. Poʻlotov, Faxridin, K. Sayfiddinov va Sh. Abduxalimova. "Biopreparat-Bioinsektitsid". 1.1 kutubxonasida (2024): 85–89.
11. Shavkat, A., Kural, A., & Gayratdin, O. (2025). ORGANIZATIONAL SYSTEM OF PERSONNEL POLICY AIMED AT IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. Advanced methods of ensuring the quality of education: problems and solutions, 2(4), 98-102.
12. Shavkat, A. va Kural, A. (2025). OLIY TAʼLIM MASSASALARIDA TAʼLIM SIFATI VA TAʼLIM QIMMATINI ORTALASH UCHUN TAʼLIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNI TASHKILLASH. Taʼlim sifatini taʼminlashning ilgʻor usullari: muammolar va echimlar , 2 (4), 85-88.